

## EKOLOGIK TARBIYA OILADAN BOSHLANADI

*Mamasadikov N.Sh., Normatova Sh.A., Botirov M.T.  
Central Asian Medical University*

Ekologiya - qadimgi yunoncha: οἶκος — “uy”, “turar joy” ma’nosini anglatadi. Ekologiyani organizmlar va atrof muhit o’rtasidagi o’zaro munosabatlarni o’rganadigan fan sifatida talqin qilinadi. Ekologiyaning fan sifatida yuzaga chiqishi 18-19-asrlarda yashagan naturalistlar va geograflarning ishlari bilan bog’liq.

20-asrning 2-yarmida odamning biosferaga salbiy ta’siri kuchayishi natijasida ekologik krizisning yuzaga chiqishi va tabiatni muhofaza qilish ishlarini keng miqyosda amalga oshirish zaruriyatining tug’ilishi bilan ekologiyaning amaliy ahamiyati keskin oshib ketdi; ko’pchilik tabiiy fanlarni „Ekologiyalashtirish“ boshlandi; ekologiya bilan falsafa, ekologiya bilan sotsiologiya, ekologiya bilan gigiyena va boshqa bir qancha fanlar o’rtasida uzviy bog’lanish paydo bo’ldi. Hozirgi davrda ishlab chiqarish, transport, qurilish, ilmiy-texnikaviy, tibbiy, demografik muammolarni hal etish hamda tabiiy resurslardan ratsional foydalanish yo’llarini ishlab chiqishda ekologik yondashuv zarur bo’lib qoldi.

Xalqimizda yaxshi bir naql bor: “Atrof-muhit tozaligi uyning ostonasidan boshlanadi”. Har bir xonadonning sarishtaligi, obodligi uning ostonasida, ko’cha-kuy, hovli-joyini toza va saranjom tutishda bilinadi. “Qush uyasida ko’rganini qiladi” deganlaridek, ota-onalar bolalarga tabiat in’om etgan yer va suvni asrab-avaylash, tuproq va havoni ifloslantirmaslik, o’simlik-yashillik olamini saqlash haqidagi o’g’itlarni doimiy ravishda singdirishlari va ularning hayot mezoniga aylantirishlari talab etiladi. Farzandlarimizga, o’lkamiz uchun tobora qadrlil bo’lib borayotgan ichimlik suvidan tejab-tergab foydalanish munosabatini shakllantirish ayniqsa, o’ta muhim masaladir.

Bolalarning atrof-muhitga bo’lgan nojo’ya munosabatiga ota-onalar munosabat bildirishlari va buning salbiy oqibatini tushuntirib, tabiiy muhit tozaligi, havoning musaffoligi avvalom bor bizning salomatligimiz, hayotimiz barqarorligini ta’minlashini astoydil uqtirib borishlari lozim. “Toza muhit bu sog’lom hayot muhiti” qoidasini oilaning turmush tarzi va dunyoqarashi, kundalik zaruriyati, amaliy ko’nikmasi va hayotiy ehtiyojiga aylantirish zarurdir.

Ekologik-huquqiy ta’lim va tarbiya asosan oilada olib borilishini inobatga oladigan bo’lsak, demak har bir oilada o’sib-ulg’ayayotgan yoshlarimiz mustaqil davlatimizning ekologik siyosati hamda uning mazmunini, huquqiy-ekologik muammolar hamda ularni hal qilishning huquqiy-iqtisodiy tomonlarini yaxshi bilishlari, chuqur huquqiy-ekologik bilimlarga ega bo’lishlari va jamiyat faoliyatining ekologik sohasida faol qatnashishlari zarur bo’ladi.

Haqiqatan ham, oilada ekologik madaniyatni, atrof muhitga jiddiy munosabatda bo’lishlikni qat’iy belgilab beradigan normalarning amaliyotga kiritilishi kelajakda oilada ko’zlangan maqsadga erishishni ta’minlaydi. Masalan, Ispaniyada mashina derazasidan axlat uloqtirganlik uchun taxminan milliy valyutamizda 2,7 mln.so’m, sigaret qoldig’ini yo’lakka tashlash 1,2 mln.so’m miqdorida jarimaga asos bo’ladi. Germaniyada axloqsiz fuqarolar “chiqindi izquvarlari” tomonidan ushlanadi. Ko’chaga o’rnatilgan videokamera orqali maxsus qutiga tashlanmagan axlat uchun aholining ana shunday qatlamiga 1,35 mln.so’mgacha jarima solinadi. Sigaret qoldig’i, muzqaymoq yoki konfet qog’ozi, salqin ichimlik shishasini yerga tashlash 270 ming so’m, saqich, qoldiq ovqat uloqtirish 470 ming so’mni tashkil etsa, eski mebel, elektron texnikani tashlaganlik uchun 2 mln.so’mdan 8 mln.so’mgacha jarima to’lashga sabab bo’ladi. Shvetsiyada yerga tashlangan qog’oz uning egasiga 1,2 mln.so’m, Singapurda esa 3,7 mln.so’mdan 12,4 mln.so’mgacha tushadi. Fikrimizcha, oilada ekologik huquqiy tarbiya berish jarayonida mazkur masalaga alohida e’tibor berishlikni tushuntirish kelajakda amaliy faoliyatni ijobiy takomillashuviga yordam beradi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, oilada ekologik tarbiyani shakllantirishda biz ko’xna Sharq xonadonlarining turmush tarzini tahlil etishdan boshlasak maqsadga muvofiq bo’lardi. Qarang, bobo-buvilarimiz hovli joylarini tozalashdan avval shakarob qilib suv sepishni, so’ngra supurgini

sal ho‘llab supirishni uqtirganlar, kundalik chiqindilarni hovli chetidagi o‘raga tashlab ustidan tuproq tortganlar, kuz paytida xas-xashaklarni to‘plab yoqmaganlar. Chunki, xas-cho‘plar, xazonlar tutuni orqali zaharli moddalar havoga uchadi va atmosferani ifloslantiradi. Shuning uchun ularni chuqurga ko‘mib kompostlash (ya‘ni chiritish) yo‘li bilan o‘simliklar tomonidan yaxshi o‘zlashtiriladigan mineral moddalarga aylantiriladi, axlatlarning harorati ko‘tarilib, qattiq isish jarayonida ulardagi inson sog‘ligi uchun xavfli mikroorganizmlar o‘z o‘zidan qirilib ketadi.

Xalqimiz orasida “uvol” degan tushuncha qadimdan juda keng tarqalgan. Tabiat unsurlari, ya‘ni suv, tuproq, o‘simliklardan bemaqsad foydalanish uvol sanalgan. Bugungi kun aksar yoshlari uvol nimaligi yaxshi bilmaydi ham. Uvol tushunchasi odamlarning boy yoki kambag‘alligiga qaramasdan barchaga bab-baravar tegishli bo‘lgan. Uvol qilmaslik, nojo‘ya ish qilmaslik, biror narsani bekorga sarf qilmaslik, tejamkor bo‘lishlik ba‘zilar o‘ylagandek xasislik belgisi emas, bu yuksak ekologik ma‘naviyat belgisidir. Tejamkorlik xislati yosh avlodga bolaligidan singdirilib kelinar va bu ma‘naviyat to umrining oxirigacha saqlanib qolardi. Mabodo, biror kimsaning shunday ma‘naviyatiga putur yeta boshlagani sezilib qolsa, jamoatchilik unga o‘zini qanday tutish kerakligini chiroyli yo‘l bilan eslatib qo‘yardi.

Umuman olganda, tabiatga yaqinlik, ona zaminga muhabbat, jonajon o‘lkaning go‘zalliklaridan bahramand bo‘lish bolalarni ma‘naviy-ruhiy jihatdan boyitib nafis didini shakllantiradi hamda muqaddas zamin o‘z ona-yurtining farovonligi va tabiatining musaffoligi to‘g‘risida qayg‘urishni o‘zlarining burch va mas‘uliyatli ekanliklarini yuraklari bilan his etadilar.

Shuning uchun har bir ota-ona farzandiga bolalikdan ona tabiatni sevishga o‘rgatsa, nur ustiga a‘lo nur bo‘ladi. Zero, ekologik tarbiya oiladan boshlanishi zarur.